



Worthy recognition of the bravery and labor of Uzbek women during the years of World War II

Zebikhon KUZIEVA¹

Shakhrisabz State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

Keywords: "Hero of Labor",

"Order of Lenin",

"Order of the Red Banner of

Labor",

"Order of the Red Star",

"For Courage",

"For Labor Valor",

"Order of the Patriotic War".

ABSTRACT

This article analyzes the bravery and selflessness of Uzbek women on the front lines and in the rear during World War II (1941-1945), as well as the orders and medals awarded for their services. The article aims to illuminate the role of Uzbek women in history and present exemplary models for the younger generation to emulate.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss9/S-pp164-167>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Ikkinchi jahon urushi yillarida o'zbek ayollarining jasoratlari va mehnatlarining munosib taqdirlanishi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

"Mehnat Qahramoni",

"Lenin orderi",

"Qizil Mehnat Bayrog'i ordeni",

"Qizil Yulduz" ordenlari,

"Jasorat uchun",

"Mehnatdagi jasorati uchun",

"Vatan urushi" ordenlari.

Ushbu maqolada 1941-1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushi davrida o'zbek ayollarining front va front ortidagi jasoratlari, fidoyiligi hamda ularning ko'rsatgan xizmatlari uchun berilgan orden va medallar tahlil qilinadi. Maqolada o'zbek ayollari tarixidagi o'rnini ochib berish, yosh avlodga ibrat bo'ladigan namunalarni taqdim etishga xizmat qiladi.

¹ Doctoral student, Shakhrisabz State Pedagogical Institute.

Достойная награда за мужество и труд узбекских женщин в годы второй мировой войны

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

«Герой Труда»,
«Орден Ленина»,
«Орден Трудового
Красного Знамени»,
Ордена «Красной Звезды»,
медали «За отвагу»,
«За трудовую доблесть»,
Орден «Отечественная
войны».

В данной статье анализируются подвиги и самоотверженность узбекских женщин на фронте и в тылу во время Второй мировой войны 1941-1945 годов, а также ордена и медали, врученные за их заслуги. Статья раскрывает роль узбекских женщин в истории и представляет примеры, служащие образцом для подражания молодому поколению.

KIRISH

Ikkinchi jahon urushi millionlab begunoh insonlarning o'limiga sabab bo'lgan, mislsiz yo'qotish va talafotlarga olib kelgan eng dahshatli qirg'in bo'lganini hammamiz yaxshi bilamiz. Olti yil davom etgan bu qonli urushda o'sha paytda dunyodagi mavjud 73 ta davlatdan 62 tasi, Yer yuzi aholisining 80 foizi ishtirok etgani ham bu haqiqatni taqiqlaydi [1].

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng keng qamrovli va fojiali voqealardan bo'lib, unda millionlab insonlar halok bo'ldi, oila va jamiyatlar taqdirida chuqur o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda O'zbekiston xalqi ham barcha sohalarida jipslashib, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga katta hissa qo'shdi. Xususan, o'zbek ayollari frontda va front ortidagi jasorat, matonat va fidoyilik ko'rsatdilar. Ularning urush yillaridagi mehnati davlat tomonidan munosib e'tirof etilib ko'lab ayollar orden va medallar bilan taqdirlangan.

O'zbekistonlik askar va ofitserlardan 214 mingga yaqini jangovar orden va medallar bilan mukofotlangani ularning jasoratidan dalolat beradi. Mamlakatimiz urush yillarida frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylangan, jang maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', kiyim va oziq-ovqatlar yetkazib turilgan [10].

Urush boshlangandan keyin mamlakatda ishchi kuchi yetishmasligi yuzaga kela boshlagan. Shunday og'ir vaziyatlarda ayollar frontga ketgan erkaklar o'rnini egallashgan. Ular og'ir sanoat tarmoqlarida, temiryo'l qurilishlarida, paxtachilik va oziq-ovqat ishlab chiqarishda asosiy ishchi kuchiga aylangan. Front ortida ishlab, mehnat qilib, armiyani oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon bilan ta'minlashda ayollar muhim rol o'ynadi. O'zbekistonning turli hududlaridan joylashgan fabrika va zavodlarda minglab ayollar safarbar etilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbek ayollari urush maydonlarida ham mardonavor xizmat qilishgan. Ular orasida sanitarlar, hamshiralar, aloqachilar, razvedkachilar, harbiy mashinalarni haydaydigan mashinistlar va hattoki snayper-chi ayollar bo'lishgan. Vatan ozodligi yo'lida erkaklar bilan bir safda xizmat qilgan ayollarning mehnatlari va jasoratlari e'tiborsiz qolmadi. Ularning ko'pchiligi "Mehnat Qahramoni", "Lenin orderi", "Qizil Mehnat Bayrog'i ordeni", "Qizil Yulduz" ordenlari, "Jasorat uchun", "Mehnatdagi jasorati uchun", "Vatan urushi" ordenlari va boshqa davlat mukofotlari bilan taqdirlangan.

Mazkur maqola quyidagi adabiyotlarga tayangan holda tahlil qilindi. Sh.Mirziyoyev. Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 09.05.2021, O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Saidov A.ning "Jasorat va fidoyilik" (2015) kitobi asosida tahlil[8], Jo'rayeva Nilufar "O'zbekiston xotin-qizlariga munosabat (XX asrning 20-80 yillari misolida)" 2013. Qashqadaryo viloyati arxivlari va urush faxriylari haqidagi mahalliy ma'lumotlar[9], Ikkinchi jahon urushi faxriylari haqidagi statistik ma'lumotlar, hujjatlar, esdaliklar va tarixiy tadqiqotlar asos qilib olindi.

METODOLOGIYASI.

Ushbu maqola O'zbekistonlik xotin-qizlarning urushdagi qahramonliklari va front ortidagi mardonavor mehnatlarini davlat tomonidan munosib taqdirlanishini, medal va ordenlarning ma'nolarini chuqurroq o'rganishda tarixchi olimlarning o'z asarlarida hamda tadqiqot ishlarida keltirilgan ma'lumotlarini o'zaro qiyoslash, tahlil etish, izchillikda, bosqichma-bosqichlikda hamda albatta xolislik metodiga alohida ahamiyat berilgan holda yoritib berish maqsad qilindi.

MUHOKAMA.

Ikkinchi jahon urushi yillarida urushga qatnashgan front va front orti jangchilari uchun ko'plab medallar va ordenlar ta'sis etilgan. Har biri o'z ma'no mohiyatiga ega bo'lgan. Masalan: "Qizil Yulduz" ordeni jang maydonlarida bevosita qatnashib, botirlik ko'rsatgan jangchilarga berilgan. O'zbekistonlik ayollardan sanitar ayollar, razvedkachi ayollar, janglarda munosib xizmat ko'rsatgan ayollarga berilgan. "Mehnat Qahramoni" unvoni front ortida tinimsiz mehnat qilib, paxta, g'alla yetishtirishda va sanoatda jonbozlik ko'rsatgan ayollarga berilgan. "Jasorat uchun" medali bevosita jang maydonlarida jasorat ko'rsatgan ayollarga yoki "Mehnatdagi jasorati uchun" medali urush yillarida ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda jasorat qilganlarga berilgan.

Ushbu tarixiy faktlar ayollarning Ikkinchi jahon urushidagi o'rni faqat yordamchi kuch sifatida emas, balki to'laqonli harbiy xizmatchi sifatida baholanishi kerakligini ko'rsatadi. Ayollar ko'pincha halokatli holatlarda o'z hayotini xavf ostiga qo'ygan holda jangchilarga yordam bergan [3]. Ularning jasorati, fidoyiligi va matonati davlat tomonidan turli mukofotlar bilan taqdirlangan bo'lsa-da, bugungi kunda ularning xotirasini e'zozlash, hayot yo'lini o'rganish juda muhim masala bo'lib qolmoqda [4].

Jumladan, urushning dastlabki yillarida I-o'zbek delegatsiyasi tushgan va sovg'a-salomlar orilgan poyezdni boshqarib borgan mashinist Bashorat Mirboboeva, frontda dushmanga qarshi janglarda mardlarcha fidoyilik ko'rsatib, munosib taqdirlangan jangchilardan. Roza Ibrohimova, Zeboxon G'aniyeva, Rahima Alimova, Azizaxon Qalandarova, Sharofat Eshonxo'jayeva, Xosiyat Usmonova, Sora Shukurova, Sobira Majidova, Salomat Sanginova, birinchi traktorchi ayol Qumrixon Yoqubboevaning qizi Muhabbatxon Ismoilova kabilar o'lim bilan yuzma-yuz turib jang qilib, Vatan uchun jon bermoqqa tayyor ekanliklarini amalda ko'rsatib, chinakam qahramonlar safidan joy oldilar. [6]

Azizaxon Qalandarova ham frontga ketishdan oldin bir oy to'ptoshni mashq qilib, keyin artilleriyachilar bilan birga frontga jo'naydi. Oryol-Kursk yonidagi shiddatli janglarda Azizaxonning to'pidan uzilgan o'qlar gitlerchilarning uchta bombardimonchi samolyotini chilparchin qildi. Uning harbiy mahorati «Qizil Yulduz» ordeni bilan taqdirlandi. Qonli janglardan birida A Qalandarova ham og'ir yarador bo'ladi. Biroq sog'ayib chiqqanidan so'ng ham yana jang maydoniga qaytadi. U ikkinchi marotaba yana yaralanadi. Toshkentga qo'ltiqtayoqda, ammo ko'ksida «Qizil Yulduz» ordeni, «Jangovar

xizmatlari uchun», «Jasurligi uchun» medallari bilan qaytgan. Albatta, shu o'rinda o'zbek ayollarining Vatan degan tushunchani yuksak qadrlaganligini alohida ta'kidlash joiz. [6]

1942 yildagi Moskva ostonalarida mardonavor jang qilgan o'zbek qizi — Toshkent teatr san'ati institutining 16 yashar tolibasi. 28 fashistni yer tishlatgan mohir mergan Zebo G'aniyeva Moskva uchun olib borilgan janglarda o'zbek xalqi qahramon qizlarining jasorati namunasini ko'rsatgan. Uning urush janggohlaridagi qahramonliklari “Qizil Bayroq” ordeni bilan taqdirlandi. [6].

O'zbekiston san'at xodimlari mehnatkash xalqqa, jangchilarga xizmat qilib, ularning ruhini ko'tarib turdilar. San'atkorlardan tuzilgan 30dan ortiq brigadalar frontdagi jangovar harbiy qismlarning askar va zobitlari uchun 400-martadan ko'proq konsert berdilar. Bu tadbirlarda faol qatnashgan atoqli san'atkorlar- Halima Nosirova, Tamaraxonim, Abror Hidoyatov, Lutfixonim Sarimsoqova, Sora Eshonto'rayeva, Abbos Bakirov va boshqalar xalq hurmatiga sazovor bo'ldilar [7].

XULOSA.

Ikkinchi jahon urushi davrida xizmat qilgan ayollar — bu tarixiy jasorat namunalaridir. Ularning mukofotlanishi bu fidoyilikning yuksak bahosi hisoblanadi. Bugun bu ayollarning nomini, jasoratini tarixiy xotiramizda saqlash, yoshlarga ibrat qilish ko'rsatishimiz va urush yillarini yanada chuqurroq o'rganishimiz barchamizning burchimizdir. Zero, vatanparvarlik tuyg'usini tarixni o'rganganimizda anglab yetamiz.

Kim bo'lishidan qat'i nazar jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urush, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi [2].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoyev. Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 09.05.2021. president.uz.
2. I.Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q”. Toshkent. “SHarq”.1998
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: “O'zME” nashriyoti, 2000–2015.
4. “Xotira va qadrlash” jamg'armasi nashrlari. – Toshkent, 2019.
5. “Герои страны” portali: www.warheroes.ru (2024-yil 10-maydagi holat).
6. Jo'rayeva Nilufar “O'zbekiston xotin-qizlariga munosabat (XX asrning 20-80 yillari misolida)” 2013.
7. Q.Usmonov O'zbekiston tarxi. ” Istisodiyor-Moliya” Toshkent. 2016.
8. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Saidov A.ning “Jasorat va fidoyilik” (2015) kitobi asosida tahlil
9. Qashqadaryo viloyati davlat arxivi hujjatlari, 2024.
10. “Xalqimizning g'alabaga qo'shgan hissa chinakam mardlik va qahramonlik solnomasidir”. Vatanparvar gazetasi. 2025-yil 9-may. №19. 2-bet.